

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14536100>

YOSHLIK VA GO‘ZALLIK MAVZUSIDAGI ASARLAR VA ULARNING TASVIRIY SAN’ATDA YECHIMI

Abdumuminov Sidiqbek Mirzabahrom o‘g‘li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Amaliy san’at fakulteti “Chizmatasvir” kafedrası o‘qituvchisi.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlik hamda go‘zallik mavzusini o‘z asarlarida ifoda ettirgan dastgohli va mahobatli rangtasvirchi rassomlar va ular yaratgan tasviriy san’at asarlarining kompozitsion yechimi va tahlili to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan fikrlar va qarashlar rassomlar asarlari orqali ifoda etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Yoshlik, go‘zallik, rangtasvir, kompozitsiya, kolorit, yechim, portret janri, etyud, issiq va sovuq ranglar, ranglar gammasi.*

***Аннотация:** В данной статье речь идет о композиционном решении и анализе творчества художников изобразительного искусства, выразивших в своих произведениях тему молодости и красоты, и созданных ими произведений изобразительного искусства. Также в статье мысли и взгляды автора выражены через произведения художников.*

***Ключевые слова:** Юность, красота, живопись, композиция, цвет, решение, портретный жанр, этюд, теплые и холодные цвета, цветовая гамма.*

Albatta bugungi kunda yoshlarga bo‘lgan e‘tibor juda yuqori ayniqsa, bu boradagi aynan, ijod ahlining erkin ijodiy va ilmiy faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda ilgari surilgan tashabbuslarni

amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan.¹ Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini tiklash, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oily o'quv yurtidan keying ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida tashkillashtirilgan bosqichlarga bevosita aloqasi bor desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yoshlik va go'zallik mavzusini sodda va xaqchil qiyofasini o'z rangtasvir asarlarida aks ettirgan rassomlar juda kop. Bu mavzuni tasvirlashda rassomlar bolalikka, o'tmishning iliq xotiralariga yuzlanadi. Bu mavzuga qo'l urmagan, o'z asarlarida ushbu mavzuni kuylamagan ijodkorni topish mushkul, albatta. Hattoki ko'plab taniqli xorijlik rassomlar ham yurtimizga tashrif buyurib, bu yerning go'zalligiga mahliyo bolib hayotining so'ngiga qadar, go'zal O'zbekistonda yashab ko'plab ushbu mavzularga oid ijod namunalari yaratdilar va tasviriy san'at sohasini rivojlanishiga o'zlarining yuksak hissalarini qo'shib keldilar. Bu rassomlardan biri Pavel Petrovich Benkov hisoblanadi. Benkovning o'ziga xos original usulga ega bo'lishida, uning O'zbekistonda yashashi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning asarlaridagi ranglar yorqinligi va uyg'unligi, yaratgan asarlarining o'ziga xos koloriti yoshlikning jilvalariga monand bir ko'rinish aks etadi. Uning 1945-yilda yaratilgan "Dugonalar" nomli asarining kompozitsion yechimida oltin kesim usulidan foydalanib, yoz faslining issiqligi, yurtimizning quyoshini moxir usulda tasvirlanganligini korish mumkin. Asarda san'atshunoslar tomonidan qo'llaniladigan "Benkovning quyoshi" degan atamaning isbotini sezish mumkin. Qolaversa, yoz faslining go'zalligini, soya va yorug' munosabatini aniq ifodalanishi hamda qizlarning issiq ranglarda to'q soya korinishida tasvirlanishi asarning ifodaliligini juda oshirgan.

Mashxur rangtasvirchi rassom Kovalevskaya ham o'zining oltin ijodi bilan O'zbekiston san'atiga hissa qo'shgan. U Samarqandga O'zbekiston davlat ilmiy

¹ <https://lex.uz/docs/-6266656>

tadqiqot institutiga rassom sifatida ishlashga taklif qilingan. O'sha vaqtlarda ayollar mehnatini o'rganish sayohatlarida u ko'plab akvarel eskizlarini, ayollar va bolalar eskizlarini olib keladi. "Samarqandlik bola" asarida yoshlik ufurib turgan beg'ubor bola obrazi juda ajoyib ishlangan.

Yana bir maxoratli rangtasvirchi rassom Usta Mo'min tog'li O'zbekiston xalqini, uning mehnatkash obrazini sevgan. Asarlarida yoshlikni tarannum etgan. O'z etud va kartinalarida qishloq mehnatkashlarining maishiy hayotini, mavsumiy dala ishlari bilan bog'liq bo'lgan sujetlarni yoritib borgan. Uning "Dutorchi yigit" nomli asarida yosh dutorchi yigitning ichki olamini va uning nozik tabiatini yaxlit rangtasvirda mujassam etadi. Issiq rangli kolorit yigitning holatini mahorat bilan aks ettishida yechim bo'la olgan. Asarda asosiy ranglardan tuzilgan gammani ko'rish mumkin. Uning ko'plab asarlari O'zbekiston muzeylarida saqlanadi.

Aleksandr Nikolayevich Volkov rus rassomi, O'rta Osiyo zamonaviy san'ati asoschilaridan biri. O'zbekiston xalq rassomi. Aleksandr Volkov g'arb tasviriy uslublarini sharqning yorqin bo'yoqlari bilan birlashtirishga muvaffaq bolgan san'atkordir. Rassomning "Shohi Zinda", "Bibixonim", "Qishloqda bahor", "O'zbek bayrami", "Uloq" kabi asarlari va shu kabi ko'plab asarlari bizga ma'lum. Uning "Paxta tutgan qizlar" nomli kartinasi alohida e'tiborga loyiq. Asarda rassomning ozgacha uslubini, rangda ishlash texnikasini ko'rishimiz mumkin. Ushbu asarda issiq va sovuq ranglar gammasi mohirlik bilan aks ettirilgan hamda kompozitsion yaxlitlikka erishilgan. Asosan shakllar va ranglar uyg'unligiga etibor qaratsak, shakllar kubizm yo'nalishini eslatadi. Rassom bu kartinasida Ozbekistonning issiq iqlimi, mintaletetidan kelib chiqqan holda issiq ranglar gammasini tanlagan. Undagi yosh ozbek ayollari paxta tutgan holatda bo'lsada ularning go'zalligini, milliy obrazi, rassomning qarashlaridan uning ichki tuygularidan kelib chiqib tasvirlangan.

Abdullaev Abdulhaq rangtasvir ustasi. O'zbekiston xalq rassomi ijodini manzara va portretlar chizish bilan boshlagan Uning "Baxri" (1967-yil) portreti va "Uyg'urcha raqs" (1964-yil) asarlari hamda yana ko'plab kartinalari yoshlik, navqironlik, shijoat korinishlarini aks ettiradi. Buyuk portretchi rassom Abdulhaq

Abdullayevning yuqorida qayd etilgan ikki kartinasida yoshlikka xos bo‘lgan shijoat va ranglar dinamikasini sezish mumkin. “Baxri” portretidagi qizaloqning bolalarga xos qarashini issiq sovuq ranglar orqali, tomoshabinni Baxrining ichki dunyosiga olib kiradi. Uning ko‘zlaridagi kayfiyat tomoshabinni o‘ziga tortadi. Asarda yoshlik, shijoat ranggi bo‘lmish zarg‘aldoq rangni qizaloqning ko‘ylagida jilvalanishi, asarning yanada e‘tibor tortuvchi tomonidir. Rassom tasvirlagan ikkinchi portretida ham o‘smir yigitning raqsga bo‘lgan muhabbatini, ko‘zlaridagi yoshlikka xos jo‘shqinlikni uning qiziqarli raqs harakati orqali ifodalagan.

O‘zbek tasviriy san’atida portret janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan yana bir buyuk rangtasvirchi rassom Rahim Ahmedov hisoblanadi. Rassom juda kop mavzularda asarlar yaratgan. Xususan, yoshlik mavzusi ham uning turli asarlarida aks etadi. 1958-yilda yaratilgan “Opa-singillar” portreti yoshlik mavzuli asarlariga misol qilsa boladi. Bunda ikki opa- singilning beg‘ubor bolalik holati rassom nigohi orqali gavdalanadi. Asarning kompozitsion yechimi ham sodda ko‘rinishi ham aynan bolalik, sodda va yorqin xotiralar ko‘rinishida tasavvur uyg‘otadi. O‘zbekiston xalq rassomi R. Ahmedovning “Talaba qiz portreti” 1954 yil, “Ozbek qizi portreti” 1958 yil, “Qashqadaryolik ayol” 1959 yil, “Nigora” 1971 yil, “Lola portreti” 1979 yil, “Opa-singillar” 1958 yil, “Yoz” 1969 yil, va shu kabi ko‘plab asarlarini yoshlik mavzusiga misol qilib ko‘rsatish mumkin. Rassomning “Yoz” nomli asarida esa ilmga chanqoq yosh o‘smir qizni yozgi so‘risida, diqqat bilan kitob o‘qiyotganligi tasvirlangan. Asarni ko‘rgan zahoti tomoshabinda yoshlikdagi bilimga chanqoqlik va o‘ziga ishonchni ranglar va soya yorug‘lar orqali tola his qilsa bo‘ladi.

O‘zbekiston xalq rassomi Sobir Raxmetov ijodida ham o‘ziga xos uslublarda yaratilgan yoshlik mavzusiga oid ko‘plab portretlar, mavzuli kompozitsiyalarni uchratish mumkin. “Qizcha portreti” 1990 y. nomli portretidagi qizaloq obrazini rassom olis qishloqlardan biridagi ijodiy safari davomida yaratgan. Rassomning aytishicha: “Bu qizaloq juda sabrli va irodali. Bu yoshdagi bolalar odatda uzoq vaqt natura bo‘lib o‘tirib berishga sabri bardoshi yetmasdi. Bu qizaloq esa aksincha edi”, deb eslaydi,

rassom S.Raxmetov xotirlab. Portretida qizaloqning ichki dunyosi asar koloriti bilan uyg'unlashganligini ko'rish mumkin.

Rassom "Hamid Olimjonning o'spirinlik davri" (1996 y.) nomli portretida buyuk shoirning o'smirlik davridagi holatini lirik obrazini ko'rsata olgan. Asarda yoshlik go'yo soyaga o'xshaydi, xotiraga o'xshaydi, hech qachon qaytmaydigan bir lahzaning iziga o'xshaydi. Asarni kuzatgan inson xuddi o'z yoshligini ko'rgandek bo'ladi.. Portretidagi tanlangan ranglar garmoniyasi ham o'ziga xos zavq bilan asarning qiziqarliligini ta'minlagan.

O'zbekiston xalq rassomi Rustam Xudoyberganov ko'plab monumental asarlar, qolaversa dastgohli rangtasvirning turli janrlarida samarali ijod qilib kelmoqda. "Sevgi izhori" nomli asarida yoshlikning go'zalligi, beg'ubor tuyg'ular ohangi ikki yosh juftlik orqali moxirona tasvirlangan. Yoshlik huddi bahor fasliga o'xshaydi. Asarga tanlangan ranglar alvon rangli ko'ylak, oq libosdagi nay chalayotgan oshiq, va unga hamohang tabiat soddalik bilan asar jozibasini va lirik kuchini ta'minlagan. Rassomning "Yozda"(2015-y.) nomli kompozitsiyada ham rassom qishloq qizlarining suv yoqasida yoshlikka xos qiziqarli suhbat jarayoni aks ettirilgan. Asar markazida esa qahramonlar issiq ranglarda tasvirlangan. Asarda bir birini chaqiruvchi ranglar gammasidan foydalanilgan. Bu esa asarni ochishda yordam beradi. R. Xudoyberganovning yoshlik mavzusiga oid "Kelin", "Maktub", "Qiz bola portreti", "Sevgi izhori" kabi ko'plab kartinalari san'atshunoslar tomonidan e'tirof etilgan.

O'zbekiston xalq rassomi Baxodir Jalol ijodi turfa xil uslublarni qamrab olgan. Uning ijodida bolalik yoshlik va muhabbat falsafasi ramzlar orqali uyg'unlashgan. Ranglar va shakllar orqali bolalik dunyosining rangbarangligini, sirliligini va o'ziga xos dunyoqarashini rassom nigohida tasavvur qilamiz. "Qarash" nomli asarida uning bolalik xotiralari jonlanadi. Yoshlik mavzusida asar yaratish uchun ijodkor o'z bolaligiga nazar soladi. Osmondan tushayotgan nur esa yorqin kelajakdan dalolat beradi. Asardagi issiq kolorit esa yanada tasir kuchini oshirmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yoshlik va go'zallik mavzusidagi asarlarning kompozitsion yechimi va tahlili mavzusining tanlanishidan asosiy maqsad,

O‘zbekiston tasviriy san’atida yoshlik hamda go‘zallik mavzusidagi asarlarning kompozitsiyasi, yechimi va tahlilini yoritib berishdir. Bu mavzuda ijod qilgan ijodkorlar juda ko‘p. Ularning asarlari huddi yoshlik kabi turfa xil. Yurtimizda yoshlarga bo‘lgan e’tibor, qadriyatlarimizga hurmat-ehtiromni yuksala borishi o‘z ifodasini tasviriy san’at olamiga ham ta’sir etdi. Asrlar davomida yaratib kelingan turli tasviriy va amaliy san’at namunalari aynan yoshlik, muhabbat, go‘zallik mavzulari doimo ilhomlanib kelingan asarlar desak bo‘ladi va bir necha asrlardan beri san’at olami ijodkorlarini diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ularga bag‘ishlangan turkum asarlarni yaratilishi yurtimizda bo‘layotgan yoshlarga e’tiborning oshib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev.N. «O‘zbekiston milliy portret san’ati». G‘.G‘ulom nomidagi nashr. T.2011-y.
2. Khujaniyozov R.Q. Fine lines Uzbekistan painting art. – Art and design Social Science, 2022. – B. 8-11.
3. Khujaniyozov R.Q. The Integral Role of Artists is the Development of Fine Arts. ARTS AND DESIGN, 2024 ISSN: 2660-6844, – B. 18-21.
4. Erkabayeva F.A Yangi O‘zbekiston mahobatli rangtasvir san’atining bugungi kundagi taraqqiyot yo‘li, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. – B. 96-100
5. Allabergenov S.A. The Significance of Colors as an Emotional Factor in the Art of Painting. – USE: AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2023. – ISSN (E): 2993-2157 – P. 148-150
6. Mahmudov B.T. Perception of Miniature Works through an Artistic Image. – USE: IJNRAS, 2023. – ISSN: 2751-756X. – P. 179-182
7. Makhmudov B.T. The artist's psychological perception of colors, Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268.

8. Umirzakov R.R. Imagination allows a person to realize many projects. – European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2023. – ISSN - 2795-8612. – P. 158-161
9. Xo‘janiyozov R.Q. O‘zbekiston tasviriy san’atida o‘rol tansiqboyev ijodi va faoliyati. – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. – ISSN: 2181-3191 – B. 78-79.
10. Vokhidova G.I. Cubism in Fine Arts – Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268 – P. 39-40
11. Королькова Е.Ф. Инновационный подход в художественном образовании, современные направления декоративно-прикладного искусства, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. – P.107-111.
12. Khujaniyozov R.Q. Fine lines Uzbekistan painting art. – Art and design Social Science, 2022. – B. 8-11.
13. Khjaniyozov R.Q. The Integral Role of Artists is the Development of Fine Arts. ARTS AND DESIGN, 2024 ISSN: 2660-6844, – B. 18-21.
14. Erkabayeva F.A Yangi O‘zbekiston mahobatli rangtasvir san’atining bugungi kundagi taraqqiyot yo‘li, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. –